

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHARIPOV ABDUNAZAR ESHQOBIL O‘G‘LI**

**SURXONDARYO VILOYATIDA TARQALGAN  
TOJIK KOVRAGINING (*FERULA TADSHIKORUM* PIMENOV)  
TABIIY ZAXIRASI VA BIOLOGIYASI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Sharipov Abdunazar Eshqobil o‘g‘li**

Surxondaryo viloyatida tarqalgan Tojik kovragining (*Ferula tadshikorum* Pimenov) tabiiy zaxirasi va biologiyasi..... 5

**Шарипов Абдуназар Эшқобил огли**

Природные ресурсы и биология ферулы таджикской (*Ferula tadshikorum* Pimenov), распространенной в Сурхандарьинской области..... 19

**Sharipov Abdunazar Eshqobil ogly**

Natural resources and biology of the Tajik Ferula (*Ferula tadshikorum* Pimenov) spread in Surkhandarya region ..... 35

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 38

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.B.70.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHARIPOV ABDUNAZAR ESHQOBIL O‘G‘LI**

**SURXONDARYO VILOYATIDA TARQALGAN  
TOJIK KOVRAGINING (*FERULA TADSHIKORUM* PIMENOV)  
TABIIY ZAXIRASI VA BIOLOGIYASI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B507 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www: qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www: ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Turginov Orzimat Turdimatovich**  
biologiya fanlari doktori (DSc)

**Rasmiy opponentlar:** **Duschanova Guljan Madrimbayevna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Mukumov Ilxom O‘ktamovich**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.06.2020.B.70.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “04” aprel soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel: (0 375) 225-34-13; faks: (0 375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz) Qarshi davlat universiteti, Fizika-matematika fakulteti, 203-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 259 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel: (0 375) 225-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “15” mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil “15” mart da 13 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**Sh.Q. Qurbonov**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
biologiya fanlari doktori, professor

**Sh.A. Samatova**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**L.H. Yoziyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
biologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida inson ehtiyoji uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan dorivor va iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan o'simliklarning tabiiy zaxiralari kamayib ketmoqda. Ayniqsa, dorivor hamda samaradorligi yuqori o'simliklarga antropogen omillar ta'sirining ortishi, ulardan oqilona foydalanilmayotganligi mazkur o'simliklar tabiiy populyatsiyalarining qayta tiklanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, natijada ular o'sayotgan tabiiy maydonlar qisqarmoqda. Shunga ko'ra, dorivor va qimmatbaho o'simliklar tabiiy zaxiralarini o'rganish va ular populyatsiyalarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda muhofazaga olingan, o'ziga xos kamyob va endem turlarga boy bo'lgan hududlarning taksonomik xilma-xilligini zamonaviy metodlar yordamida aniqlash, floradagi kamyob va endem turlarning holatini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, dorivor hamda iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan o'simlik turlaridan oqilona foydalangan holda tibbiyot va oziq-ovqat sanoati uchun zarur o'simlik turlarini turli iqlim sharoitlariga introduksiya qilish, hududlar florasi va unda yo'q bo'lib ketish arafasida turgan turlarni aniqlash, floraning muhofazaga muhtojligi va bioxilma-xillik nuqtayi nazaridan o'rnini asoslash, keng ko'lamlilik taksonomik tahlil qilish va muhofaza qilish tadbirlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillar davomida dorivor o'simliklarning tarqalish maydonlari va ularning tabiiy zaxiralarini aniqlash borasida bir qancha aniq maqsadga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu esa tojik kovragi tarqalgan maydonlarni aniqlash, ulardagi o'simlik zaxirasini baholash va shu asosida farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarishga tavsiyalar berish zaruratini taqozo etadi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “O'rmon fondining tog' va tog'oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish” va “... o'rmon fondi yerlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalari maydonlarini 4984 gektarga yetkazish” vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, *Ferula tadshikorum* Pimenovning biologik xususiyatlarini asoslash, tabiiy zaxiralarini baholash va muhofaza choralarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi PQ–3617-son “Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash, hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2020-yil 10-apreldagi PQ–4670-son “Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, 2022-yil 27-apreldagi PF–116-son “Respublikada kovrak yetishtirishni rivojlantirish va sanoatlashtirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PF–24-son

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

“Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijda *Ferula* L. turkumiga mansub turlar ustida asosan ularning kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. MDH mamlakatlarida turkum vakillarining biologiyasi, kimyosi, tabiiy zaxiralari Ye.P. Korovin (1947), M.G. Pimenov, E.V. Klyuikov (2002), L.K. Safina (2012), G.A. Lazkov (2014), X.S. Raxmonov (2017), O.A. Popova (2022)lar tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbekistonda *Ferula* turkumi turlarining biologiyasi X. Nishonboyeva (1972), U. Raxmonqulov (1981; 1999), S. Meliboyev (1985), I.U. Muqumov (1993), O. Avalboyev (2020), anatomiyasi va sitoembriologiyasi M.X. Bogdasarova, (1990), S.S. Nazrullayeva va boshqalar (2008), A.A. Butnik va boshqalar (2009), V.K. Sharipova (2017), kimyoviy tarkibi hamda farmakologik xususiyatlari G.K. Nikonov (1971), A.I. Saidxodjayev (1984), V.M. Malikovlar (1998) tomonidan o‘rganilgan.

M.G. Pimenov tomonidan 1974-yilda *F. tadshikorum* ilk bor fanga kiritilgan. X. Raxmonov (2017) tomonidan Tojikiston tabiiy sharoitida ontogenezi, fitotsenologiyasi, tabiiy zaxirasi o‘rganilgan hamda muhofaza qilish uchun chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan. O‘zbekistonda D.B. Barakayeva (2024) tomonidan *F. tadshikorum* smolasining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi, D.T. Xamrayeva va D.N. Tuxtayevalar (2024) tomonidan Toshkent Botanika bog‘i sharoitida turning ontogenezi va anatomiyasi tadqiq qilingan.

Biroq ushbu tadqiqot ishlari *F. tadshikorum*ning Surxondaryo viloyatidagi tabiiy zaxirasining zamonaviy holati haqida to‘liq ma’lumotlarni bera olmaydi. Shunga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida tarqalgan *F. tadshikorum* ning tabiiy zaxirasini aniqlash, tur tarqalgan maydonlarni belgilash, tur tarqalishini aks ettiruvchi to‘r tizimli (GAT) xaritalarini tuzish, ayrim biologik xususiyatlarini o‘rganish va muhofaza choralarini tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA Botanika instituti “Janubi-g‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi okruglari florasini to‘r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati qismi)” (2021–2024-yy.) nomli davlat dasturi hamda Termiz davlat universiteti Kengashining 2022-yil 27-avgustdagi 1-sonli qaroriga asosan “Tojik kovragining tabiiy zaxiralarini xaritalash va axborot tahliliga ega bo‘lgan raqamli platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** *Ferula tadshikorum* Pimenovning Surxondaryo viloyatida tarqalish maydonlarini, tabiiy zaxiralarini hamda ayrim biologik xususiyatlarini aniqlash.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Surxondaryo viloyatida *Ferula tadshikorum*ning tarqalishini o'rganish asosida GAT xaritasini yaratish;

turning botanik-geografik rayonlar, tuproq tiplari va balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishini tahlil qilish;

tur tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish hamda plantatsiyalar tashkil etilishi mumkin bo'lgan optimum hududlarni aniqlash;

turning urug' unuvchanligini, shira ajratish imkoniyatlarini ochib berish;

o'simlik tabiiy zaxirasining hozirgi holatini baholash, etnobotanik ma'lumotlarni tahlil qilish va muhofaza qilish choralari ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** Apiaceae oilasi *Paleonarthes* Korovin seksiyasi, *Foetidissima* Pimenov et J.V. Baranova ostseksiyasiga mansub *Ferula tadshikorum* Pimenov hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** turning tabiiy zaxirasi, geografiyasi, biologiyasi hamda etnobotanikasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada marshrutli, taksonomik, etnobotanik, biomorfologik usullar, shuningdek, to'r tizimli xaritalash, bioiqlimiy modellashtirish va GAT (geoaxborot tizimli) xaritalar tuzishning zamonaviy usullari hamda MaxEnt dasturi asosida maksimal entropiya usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

*Ferula tadshikorum* Pimenovning Surxondaryo viloyatidagi tabiiy zaxirasi xatlovdan o'tkazilgan, tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari yaratilgan, turning eng ko'p tarqalgan maydonlar Bobotog' botanik-geografik rayonining adir va quyi tog' mintaqasiga to'g'ri kelishi aniqlangan;

turning biologik modellashtirish asosida yaqin hamda uzoq kelajakda Pomir-Oloy tog'larining O'rta Osiyoda joylashgan ekotoplari tur uchun optimal yashash sharoitlarini saqlab qoladigan asosiy hududlar bo'lib qolishi ochib berilgan;

*F.tadshikorum* urug' unuvchanligi *in vitro* sharoitiga nisbatan tabiiy sharoitda yuqori bo'lishi, shira to'plash imkoniyati quyi tog' mintaqasida yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan;

turning tabiiy zaxiralari antropogen omil ta'sirida inqirozga uchrayotganligi, yangi jamoalarning paydo bo'lish jarayoni sust kechayotganligi aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*F. tadshikorum* ning Surxondaryo viloyatida tarqalgan ekspluatatsion, biologik va yillik foydalanish mumkin bo'lgan zaxiralari aniqlangan, geobog'langan ma'lumotlar asosida turning plantatsiya yaratish uchun optimum bo'lgan hududlari aniqlangan;

Surxondaryo viloyatining 4 ta tumani kesimida amalga oshirilgan etnobotanik tahlil va *F. tadshikorum* tabiiy zaxirasining hozirgi holatini baholash natijalari asosida o'simlikni muhofaza qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda zamonaviy ArcGIS Map, SASPlanet va kartografik dasturlaridan foydalanilganligi, dissertatsiya ishi davlat dasturi va amaliy loyihalarining vazifalari doirasida bajarilganligi, olingan natijalarning OAK tasarrufidagi jurnal hamda yetakchi ilmiy nashrlarda (Web of Sciences) e'lon qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, O‘zbekistonda ilk marotaba *F. tadshikorum* ning O‘zbekiston to‘r tizimli xaritalaridagi tarqalishining aniqlanganligi, turli iqlim ssenariylari ta‘sirida tarqalishining bioiqlimiy modeli yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ekspluatatsion, biologik va yillik foydalanish mumkin bo‘lgan zaxiralari, dala va laboratoriya sharoitlarida urug‘ unuvchanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni plantatorlarga taqdim etilganligi hamda shira ajratib olish jarayonini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo viloyatida tarqalgan tojik kovragining tabiiy zaxirasi va biologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tojik kovragining Surxondaryo viloyati hududidagi zaxiralari va ulardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tasarrufidagi boshqarmalar amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023-yil 7-sentabrdagi 03-03/3-4525-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududida tarqalgan Tojik kovragi zaxiralarini monitoring qilish va ular populyatsiyalarini muhofaza qilish imkoni yaratilgan;

o‘rganilayotgan tur bilan birga o‘sgan adir va tog‘ florasiga doir 100 dan ortiq turning 150 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) ilmiy noyob obyekti fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 12-oktabrdagi 4/1255-2259-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasining G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz hamda Panjoldi okrugi tarkibidagi botanik-geografik rayonlar florasiga oid yangi gerbariy namunalari noyob ilmiy obyekti O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini boyitgan va O‘zbekiston florasining elektron ma‘lumotlar bazasi axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSINING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, ishning oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti


va predmeti keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, hukumat qarorlari bilan aloqadorligi, ishning amaliy va nazariy jihatlari hamda olingan ilmiy natijalar ochib berilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda olingan natijalarining joriy qilinishi, tadqiqotning aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot usullari**" deb nomlangan birinchi bobida MDH, Markaziy Osiyo hamda O'zbekistonda o'simliklar zaxiralari aniqlash, xatlovdan o'tkazish, turning ayrim biologik xususiyatlarni o'rganish, urug' unuvchanligi borasida olib borilgan adabiyotlar sharhi, bundan tashqari mazkur *Ferula L.* turkumi turlari ustida olib borilgan tadqiqot ishlari to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan. Shu bilan yurtimizda dorivor o'simliklar bilan birga tadqiqot obyekti (*Ferula tadshikorum* Pimenov – Tojik kovragi) bo'yicha chiqarilgan Vazirlar Mahkamasi hamda Prezident qaror va farmonlari sharhi keltirilgan. Turning tabiiy zaxirasi aniqlash borasidagi ishlar, GAT xaritalari yaratish, turning tarqalishi va kelajakda tarqalishini modellashtirish, shira ajratib olish jarayonining bosqichlari, unda ishlatiladigan maxsus kesuvchi asboblarga to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Ferula tadshikorum* Pimenov geografiyasi**" deb nomlangan ikkinchi bob 2 bo'limdan iborat bo'lib, ushbu bob turning balandlik mintaqalarda, O'zbekistonning botanik-geografik rayonlarida hamda to'r tizimli xaritalarida tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda etnobotanikasiga oid ma'lumotlar jamlanmasi keltirilgan. Turning geografiyasi Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston hamda O'zbekiston bo'ylab tarqalgan bo'lib (Sennikov, 2023) asosiy tarqalish o'chog'i Tojikiston janubidagi past tog'lar (Gazimalik, Qoratog', Sar-saryak, Xo'ja Mo'min, Djilan tog', Oqtog', Bobotog') hamda Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlariga (Boysun, Ko'hitang) to'g'ri keladi (Sharipov, 2022; Raxmonov, 2017).

Bobning birinchi bo'limi O'zbekistonning botanik-geografik rayonlarida (BGR) tarqalishiga bag'ishlangan. 2019–2023-yillar mobaynida olib borilgan dala tadqiqotlari, mahalliy floralar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, raqamli axborot resurslari, yirik gerbariy fondlarida (TASH, MW, LE, AA, TAJ, FRU, MSB, P) saqlanayotgan namunalar hamda Fanlar akademiyasi Botanika institutida amalga oshirilgan xo'jalik shartnomalaridagi ilmiy hisobotlardan foydalanilgan holda amalga oshirilgan. Mazkur tur Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasining **G'arbiy Hisor okrugining** Tarqapchig'ay, Boysun, Ko'hitang, Surxon-Sherobod BG rayonlarida tarqalgan, faqatgina Qashqadaryo BG rayonida qayd etilmadi. **Hisor-darvoz okrugini** Sangardak-To'palang BG rayonida yagona namunasi bilan ma'lum (Сурхандарьинская обл., дол. р. Тупаланг. 5.VI.1973. № 736. Пименов М.Г. (MW)). Lekin olib borgan tadqiqotlarimizda uchramadi. Hududning yuqori qismiga ayrim sabablarga ko'ra o'tishning imkoni bo'lmagan. **Panj okrugini** Bobotog' BG rayonida tarqalgan. Bular orasida Bobotog' BG rayonida tur uchun eng qaynoq nuqtalardan biri sifatida e'tirof etiladi (Sharipov, 2022; Raxmonov, 2017). Gerbariy fondlarida saqlanayotgan namunalar orasida Bobotog' mintaqasidan terilgan namunalar soni boshqa hududlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Tur 3 ta okrug tarkibidagi 6 ta botanik-geografik rayonlarda tarqalganligi aniqlandi va tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari yaratildi.

Bobning navbatdagi bo‘limi turning balandlik mintaqalarida taqsimlanishiga bag‘ishlangan. Bundan asosiy maqsad qaysi balandlik mintaqasi tur uchun eng optimum ekanligini aniqlash. Tadqiqotlarda tur tarqalgan barcha hududlardan 1000 ga yaqin namunalari yig‘ildi. Bobotog‘dan 655-1529 metr, Boysundan 1083-2176 metr, Ko‘hitangdan 758-1124 metr oralig‘idagi hududlardan yig‘ildi. Mazkur namunalarni MaxEnt dasturida tahlil qilinganda viloyatdagi tur o‘shishi uchun 800-1600 m balandliklar qulay, 1200-1400 metr oralig‘i esa eng qulay balandlik (optimum) diapazoni hisoblanishi aniqlandi (1-rasm).




**1-rasm.** Tojik kovragining balandlik bo‘yicha tarqalish xaritasi

Mazkur mintaqa adir va quyi tog‘ mintaqasiga to‘g‘ri kelib, bu balandliklardagi olajinsli, qizil qumli, kulrang mayin bo‘z tuproqli ekologik muhitning shakllanganligi bilan izohlanadi. Turga tashqi ta‘sirning, yil sayin talabning ortishi natijasida, gullash davridagi individlari deyarli ko‘zga tashlanmadi. Bu esa turning genofondi tanazzulga yuz tutayotganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda turning sanoat miqyosida plantatsiyalarini tashkil etish orqali tabiiy populyatsiyalarga bo‘lgan tashqi ta‘sirni pasaytirishga erishish mumkin.

Dissertatsiyaning “*Ferula tadshikorum Pimenovning bioiqlimiy modellashtirish va to‘r tizimli xaritada tahlili*” deb nomlangan uchinchi bobi turning kelajakda tarqalish maydonlarini zamonaviy usullar yordamida modellashtirishga qaratilgan. Bobning birinchi bo‘limi turning O‘zbekistonning to‘r tizimli xaritasidagi tarqalishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. O‘zbekiston hududining to‘r tizimli xaritasi har birining maydoni  $5 \times 5 \text{ km}^2$  bo‘lgan 19240 kvadratlarga ajratilgan (Tojibayev et al. 2022). Tojik kovragi O‘zbekistonning to‘r tizimli xaritasidagi indekslarning 109 tasi uchrashi aniqlandi (2-rasm). Bu esa umumiy indekslarning (12.3%) 0.56 % ini tashkil etadi. To‘r tizimli xaritalash tarqoq ma‘lumotlar majmuasini bir tizimga jamlash, ularni zamonaviy texnologiyalar, dasturiy ta‘minot

to'plamlaridan foydalangan holda vizualizatsiya qilish (xaritalarda aks ettirish), ma'lumotlar almashinuvini tez va sifatli amalga oshirish, eng asosiysi, floristik tadqiqotlarni universallashtirish imkonini yaratadi. Tadqiqot natijalarini to'rt tizimli xaritalarda aks ettirish va har bir indekslar bo'yicha individual yondashish uchun ma'lumotlar indekslarga geografik koordinatalar orqali bog'landi.




**2-rasm.** Tojik kovragining 5x5 km<sup>2</sup> to'rt tizimli xaritada tarqalgan indekslari

Mazkur bobning ikkinchi bo'limi turning bioiqlim modellashtirishga qaratilgan. Turning dastlabki bosqichlari Surxondaryo viloyati kesimida amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda Markaziy Osiyo va boshqa hududlarda tarqalish bo'yicha amalga oshirildi. Bioiqlimiy modellar, odatda, turlar va iqlim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu modellar turlarning ekonishasini tavsiflash, ularning iqlimiy parametrlar bilan munosabatini aniqlash va turlarni harakatlantiruvchi iqlimiy omillarni aniqlash imkonini beradi.

Tojik kovragining potensial tarqalish areali, shuningdek, kelajakda iqlim o'zgarishlarining uning populyatsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash uchun hozirgi davr (sanoat antropogen davr), yaqin (2021-2040) va uzoq kelajak (2081-2100) kabi davrlar kesimida modellashtirildi. Hozirda turning areali O'zbekistonning janubiy qismi, Tojikiston janubidagi past tog'lar va Afg'onistonning shimoliy hamda Turkmanistonning g'arbiy hududlarida tarqalgan (3-rasm). Hozirgi davr modellari Afg'oniston va Turkmanistonning tog'li hududlarida tur uchun qulay bioiqlim sharoitlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Chunki mazkur hududlar turning tarixan shakllangan ekonishasida mavjud optimum bioiqlim sharoitlarini taqdim eta oladi, mazkur mintaqalarda turning plantatsiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lishini ko'rsatmoqda.


Modellar *ssp 1.26-5.85* kelajak iqlim ssenariylari asosida amalga oshirilgan bashorat va tahlillar natijasi hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi fonida temperaturaning minimal o'sishi (*ssp 1.26*) tur uchun ahamiyatli ta'sirga ega, ayniqsa, Turkmaniston janubidagi yuqori yaroqli hududlar yaqin kelajakda o'z ahamiyatini sezilarli darajada yo'qotadi.

O‘zbekistonning Pomir-Oloy qismida yuqori potentsialli mintaqalarni qisman yo‘qotishiga qaramay, tur uchun eng ahamiyatli lokalitetlarni taqdim qiladi.




**3-rasm.** Tojik kovragining tarqalish xaritasi va tur tarqalishi uchun turli darajadagi potentsial maydonlari (Qizil-yuqori potentsialli, Sariq-yaxshi potentsialli, ko‘k-o‘rtacha potentsialli, oq-kam potentsialli hududlar)

Yaqin kelajak modellari (2021–2040-yillar). O‘rta Osiyoda harorat ko‘tarilishining bir qancha ssenariylari (CMIP6) ishtirokidagi modellarda haroratning muntazam ko‘tarilib borishi tur uchun bir qancha yangi yuqori yaroqli hududlarning paydo bo‘lishi (Shimoli-g‘arbiy Afg‘oniston), mavjud hududlarning kengayishi (Janubiy O‘zbekiston) va ayrim hududlarning qisqarib borishi (G‘arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg‘onistonda) bilan xarakterlanadi (4-rasm).



**4-rasm.** Yaqin kelajakda (2021-2040) Tojik kovragi uchun yuqori, o‘rta va kam potentsialli hududlarning iqlim o‘zgarishining turli ssenariylari (*ssp 1.26*) ta‘siridagi tarqalish xaritalari.



**5-rasm.** Uzoq kelajakda (2081-2100) Tojik kovragi uchun yuqori, yaxshi, o‘rta va kam potentsialli hududlarning iqlim o‘zgarishining turli senariylari (5.85) ta’siridagi tarqalish xaritalari

Uzoq kelajak modellari (2081–2100-yillar). Iqlim o‘zgarishining turli xil ssenariysi (1.26, 2.45, 3.70 va 5.85) asosida potensial tarqalish xaritalari tuzildi (5-rasm). 1.26 ssenariysi bo‘yicha o‘simlikning tarqalishi nisbatan barqaror bo‘lsa-da, 2.45, 3.70 va 5.85 ssenariylarida tarqalish hududlari sezilarli darajada qisqaradi. 5.85 ssenariysi eng katta xavf tug‘diradi, chunki bu ssenariyda o‘simlik faqat cheklangan va tog‘li hududlarda saqlanib qoladi.

Bu holat o‘simlikning yashash joylarini himoya qilish va ekotizimni saqlab qolish uchun aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Bioiqlimiy modellashtirish natijasida olingan xaritalar tur populyatsiyasini *in-situ* va *ex-situ* sharoitida saqlab qolish uchun muqobil hududlarni tanlash, kovrak plantatsiyalarni tashkil etishni rejalashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilinganda, Tojik kovragi tarqalishining bioiqlimiy modellari global isish tendensiyasi ortishi bilan yaqin (2021–2040) va uzoq (2081–2100) kelajakda yuqori potentsialli areallarining izchil qisqarishini bashorat qilmoqda. Kelajak ssenariylariga ko‘ra, O‘rta Osiyoning tog‘li ekotoplari Tojik kovragi uchun yaqin va uzoq kelajakda optimal yashash sharoitlarini saqlab qoladigan asosiy hududlar bo‘lib qoladi.

Dissertatsiyaning “*Ferula tadshikorum* Pimenov biologik xususiyatlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobida turning urug‘ unuvchanligi hamda shira (smola) yig‘ib olish jarayoniga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dala sharoitida Uzun tumani Bobotog‘ hududlarida Oqmachit qishlog‘i bir nechta fermer xo‘jaligiga qarashli maydonda ekish ishlari amalga oshirildi. Tajriba uchun olingan 1000 dona urug‘ning og‘irligi 30–32 grammga teng ekanligi aniqlandi. Ekishdan oldin yerga ishlov berildi. Ekish ishlari 2019-yil noyabr oyida olib borildi. Ekilgan maydon 2020–2023-yillarda doimiy ravishda

nazoratga olindi. Natijada ekilgan urug‘larning 70-75 % unib chiqqanligi aniqlandi.

Laboratoriya sharoitida urug‘ unuvchanligi aniqlash maqsadida Bobotog‘, Boysun va Ko‘hitang tog‘laridan yig‘ilgan urug‘larining Toshkent Botanika bog‘i Biotexnologiya laboratoriyasida amalga oshirildi. Surxondaryoning Bobotog‘ hududlaridan keltirilgan urug‘lar sterilizatsiya qilinib, *in vitro* sharoitida 25 va 50 % li MS (Murasige va Skug 1962) ozuqa muhitlariga ekilganida, urug‘ unuvchanligi o‘rtacha 55-60 %ni tashkil etdi. Albatta, bu ko‘rsatkich laboratoriya sharoitida nam filtr qog‘ozga ekib undirishga nisbatan kamroq natija berishi mumkin, lekin bunda olingan o‘simtlar mutlaq steril bo‘lib, ushbu o‘simtlarni kelgusida ushbu o‘simlikni biotexnologik usullarni qo‘llab ko‘paytirishda eksplant sifatida foydalanish imkonini beradi (Jamalova va boshq., 2022).

Bobning navbatdagi bo‘limi turdan shira ajratib olish jarayoniga bag‘ishlanadi. Shira olish jarayoni o‘simlikning to‘g‘ri kesilishiga bog‘liq. Kesishning 2 xil – tokcha hamda ko‘ndalang usullari mavjud.

**Tokcha kesish usuli** – ildizning yuqori qismidan yarim oysimon shaklda (ayrim holatda tilik ham deb yuritiladi) tig‘li asbob (afg‘on pichog‘i) bilan amalga oshiriladi.

**Ko‘ndalang kesish usuli** – ildizning yuqori qismidan to‘g‘ri kesish. Buning afzalligi, ildizdan shira ajralishi nisbatan ko‘proq bo‘ladi.

Tokcha usulda kesilgan ildizdan (6–7 yoshli) o‘rtacha 60–80 gramm shira ajratib olingan bo‘lsa, ko‘ndalang usulda kesilgan ildizdan 90–100 grammgacha shira ajralganligi aniqlandi. Kesish jarayonida qoidalariga to‘g‘ri amal qilinsa, o‘simlikning yashovchanligi saqlanib qoladi va kelgusi yilda yana vegetatsiyani davom ettiradi. Odatda shira olish jarayoni yoshi katta bo‘lgan 10–14 (16) yosh atrofidagi tuplarda amalga oshirilishi kerak (Raxmanov, 2017), lekin aholi tomonidan 7–8 yillik, ba’zida 5–6 yillik, ayrim holatdan 2–3 yillik yosh individlardan ham shira olish uchun kesilganligi kuzatildi (6-rasm). Kichik yoshdagi kovraklarning kesilishiga asosiy sabablardan biri sifatida, katta yoshdagi individlarning qolmaganligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston sharoitida shira olish uchun 8–12 yoshdagi kovraklardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘simlikning yoshi oshgani sari shira hosil qilish xususiyati ham oshadi. Dengiz sathidan 1400–1600 m balandlikda o‘sgan besh yoshli o‘simliklar ildizpoyasining shira berish xususiyati keskin ortganligi, 1000 m balandlikda tarqalgan turlarda esa olti va yetti yoshli o‘simliklar shirasining ortishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

**Turli yoshdagi *F. tadshikorum* tuplarining balandlik mintaqalari bo‘yicha shira berish ko‘rsatkichlari,  $n=10$**

Yoshi	Balandlik mintaqasi, m		
	<b>650-800</b>	<b>1000-1200</b>	<b>1400-1600</b>
5	35,3±1,28	37,9±1,59	<u>48,3±1,19</u>
6	42,5±1,25	<u>52,7±1,33</u>	<u>58,1±1,34</u>
7	55,1±1,86	<u>62,4±1,06</u>	<u>63,5±1,81</u>

Tadqiqotlar davomida shira ajratib olish tartibi, bosqichlari, unda ishlatiladigan asbob-anjomlar, har bir tup kovrak necha gramm shira ajratishi (yoshiga ko‘ra), kesish usullari, dimlash va shira ajralib chiqish muddatlari, shira xillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar dissertatsiyada to‘liq yoritilgan.




**6-rasm.** Kesilgan ildiz. Bobotog‘ Besharcha massivi

Dissertatsiyaning beshinchi “*Ferula tadshikorum* Pimenov tabiiy zaxirasi va muhofaza masalalari” deb nomlangan bobida turning viloyatdagi tabiiy zaxirasi, etnobotanikasi hamda muhofaza masalalari ochib berishga qaratilgan ma‘lumotlar jamlangan.

Yurtimizda so‘nggi 20–25 yil mobaynida tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan Janubiy Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining quyi va o‘rta tog‘ mintaqalarida tarqalgan turning tabiiy zaxiralaridan tartibsiz foydalanish uning O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ning so‘nggi nashriga kiritish uchun asos bo‘ldi (Maxmudov, 2019). Hozirgi kunga kelib turning deyarli populyatsiyasidagi individlari keskin ravishda kamayib ketgan, tadqiqot olib borgan yillar mobaynida tabiiy holda turning generativ fazadagi individlari deyarli uchramadi. Mavjud o‘simlik tuplari ham noqulay (qoyalarning yoriqlarida, qiya tepalik va jarliklarda) joylarda qo‘nim topgan. Mazkur turning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lganligi uchun xalq tomonidan plantatsiyalar tashkil etilmoqda, bu esa yurtimizda turning genofondini saqlab qolishga ma‘lum bir darajada xizmat qiladi. 2019–2024-yillarda olib borilgan dala tadqiqotlar davomida turning viloyatdagi tabiiy zaxirasi inventarizatsiyasi amalga oshirildi, xaritalandi, biologik, tabiiy hamda ekspluatatsion zaxiralariga oydinlik kiritildi. Tabiiy zaxirani aniqlash ishlari Bobotog‘ (22), Boysun (13) hamda Ko‘hitang (14) hududlar kesimida amalga oshirildi (7-rasm). Har bir tadqiqot o‘tkazilgan joy nomi va maydoni (gektar), geobog‘lami, hisob o‘tkazilgan maydon (gektar) ko‘rsatgichlari, voyaga yetgan tuplar soni, zaxira qiymati hamda hududdagi turning tarqalishini aks ettiruvchi xaritalari yaratildi.


Turning tabiiy zaxirasi bo'yicha keltirilgan raqamlar Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan keltirilgan raqamlarga mos kelmaydi. Buning sababi, institut tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosan buyurtmachilar fermer xo'jaliklari, tadbirkorlar, o'rmon xo'jaliklari, dehqon fermerlarning Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnoma olish uchun amalga oshirigan ishlari ekanligi bilan ifodalanadi (VM №390 sonli qaror). Bu kabi ishlar yillar davomida amalga oshirilib kelingan. Misol tariqasida Boysun tumani Omonxona qishlog'i atroflarida turning tabiiy holdagi zaxirasi to'g'risida ma'lumot yo'q. Boysun tumanidagi Qizil kanionda tarqalgan populyatsiyasi mavjud, lekin yuqoridagi singari ma'lumotlar mavjud emas. 2016–2024-yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlarda turning viloyatdagi tabiiy holdagi tur tarqalgan maydon 75 ming gektarni tashkil etadi, shundan 50 ming gektar maydondan doimiy ravishda foydalanib kelingan. Shu bilan birga, turning tarqalganini aks ettiruvchi geo axborotli xaritalari yaratildi. Tabiiy zaxirasi bo'yicha to'liq ma'lumotlar dissertatsiyada keltirilgan. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida turning viloyatdagi tabiiy zaxirasini ko'rsatuvchi mobil ilovasi ishlab chiqildi va play market joriylashtirildi. Kuzatishlar natijasida turning tabiiy zaxirasi inqirozga uchragandan so'ng aholi tomonidan yirik maydonlarda plantatsiyalari tashkil etilganligi aniqlandi, bu esa bevosita daromad manbayiga aylangan. Shu bilan birga turning genofondini saqlab qolishga erishilmoqda.



**7-rasm.** Surxondaryo viloyatdagi turning hududlar kesimidagi tarqalish xaritasi

Bobning ikkinchi bo'limi turning etnobotanikasiga bag'ishlanadi. O'simliklarning etnobotanikasiga oid ma'lumotlar bevosita hududlardagi aholi

bilan bo‘lib o‘tgan so‘rovnomalar, suhbatlar hamda ular tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga asoslangan holda tahlil qilingan. Tahlil natijalari 8-rasmda keltirilgan. Aholi tomonidan o‘simlikning yer ustki qismlari dorivor va ozuqa sifatida yig‘ilishi, undan profilaktika va 8 xil patologik holatni davolash maqsadida foydalanilishi aniqlangan. Shamollash, gijja va virusli kasalliklarni davolashda foydalansh ustunlik qilishi, Uzun va Sherobod tumanida yashovchi aholi ko‘proq tabiiy zahiralardagi o‘simliklar yer ustki organlarini yig‘ishi, Qumqo‘rg‘on va Boysun aholisi esa ko‘proq smola yig‘ib sotishi aniqlangan.



**8-rasm.** Surxondaryo viloyati aholisining *Ferula tadshikorum* foydalanish holati

Bobning navbatdagi bo‘limi muhofaza qilish uchun tavsiyalarga bag‘ishlanadi. Tur tarqalgan mintaqada aholi tomonidan nooqilona ravishda gullagan fazasida yig‘ib olish ishlari hanuz tugagani yo‘q. Bu holatning oldini olish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqildi va tabiat bilan ishlovchi tashkilotlarga yuborildi:

1. Viloyatdagi fermer xo‘jaliklari va boshqa tashkilotlarda turning tarqalish maydonlarini asrab qolish va madaniy kovrak plantatsiyalarini ko‘paytirish bo‘yicha seminarlar tashkil etish.

2. Chegara mintaqasidagi (neytral zonalar) kovrak zaxiralariga ishlov bermasdan onalik, ya‘ni urug‘ yetkazib berish zonalarini qilib belgilash.

3. Tabiiy holda tarqalgan, hozirda yo‘q bo‘lib ketgan hududlarda plantatsiyalar barpo etib, ko‘chatxonalar tashkil qilish va urug‘lar bankini tashkil qilish.

4. Vegetativ davri boshlanganda nazoratni kuchaytirgan holda qonun doirasida javobgarlik belgilash singari tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur tavsiyalarga amal qilish orqali turning tabiiy holdagi genofondini asrab qolishga erishiladi.

## XULOSALAR

“Surxondaryo viloyatida tarqalgan Tojik kovragining (*Ferula tadshikorum* Pimenov) tabiiy zaxirasi va biologiyasi” mavzusidagi olib borilgan dissertatsiya tadqiqoti natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Turning Surxondaryo viloyati hududidagi eng ko‘p tarqalgan maydonlari Bobotog‘ botanik-geografik rayonining adir va quyi tog‘ mintaqasidagi olajinsli, qizil qumli, kulrang mayin bo‘z tuproqli hududlariga to‘g‘ri keladi. Dengiz sathidan 1200–1400 m balandliklari oralig‘i turning o‘shishi uchun eng optimal hisoblanadi.

2. Global iqlim isishining barcha ssenariylarida kelajak bioiqlim modellari *Ferula tadshikorum*ning yaqin (2021–2040) va uzoq (2081–2100) kelajakda yuqori imkoniyatli maydonlari izchil qisqarishda davom etishini bashorat qildi, O‘rta Osiyoning tog‘li ekotoplari tur uchun istiqbolda optimal yashash sharoitlarini saqlab qoladigan asosiy diapazonlarni taqdim etadi.

3. Urug‘ unuvchanligi dala sharoitida 70–75 %ni tashkil etishi isbotlandi, bunda ekish muddatiga, tuproq tarkibi hamda hududning fizik-geografik xususiyatlarini inobatga olish kerak. Laboratoriya sharoitida va *in vitro* sharoitida urug‘ unuvchanligida farqlar kuzatilib, laboratoriyada urug‘ unuvchanligi 80-85 %, *in vitro* sharoitida 55–60 % ni tashkil etishi aniqlandi. *In vitro* sharoitda steril o‘simtalar olinadi va kelgusida ulardan biotexnologik ko‘paytirishda eksplant sifatida foydalanish imkonini beradi.

4. O‘simlikning to‘rt yoshidan boshlab generativ davrigacha shira hosil qilish xususiyati oshib boradi. Shuningdek, dengiz sathidan 1400–1600 m balandlik oralig‘ida o‘sgan o‘simliklarda shira miqdori ortadi.

5. Turning tabiiy tarqalgan maydonlari antropogen omil ta’siri natijasida inqirozga uchraganligi, populyatsiyada generativ fazadagi tuplar deyarli yo‘qligi, o‘simliklar qoplaminig monotonlik qiyofasi, oz sondagi tur tarkibiga ega bo‘lgan yangi jamoalarning paydo bo‘lishi jarayoni sust kechayotganligi aniqlandi.

6. O‘simlikning yer ustki qismlari aholi tomonidan asosan dorivor va ozuqa sifatida ko‘p miqdorda yig‘iladi, profilaktika va 8 xil patologik holatni davolash maqsadida ishlatiladi. Shamollash, gijja va virusli kasalliklarni davolashda foydalansh ustunlik qiladi. Uzun va Sherobod tumanida yashovchi aholi ko‘proq tabiiy zahiralardagi o‘simliklar yer ustki organlarini yig‘ib, Qumqo‘rg‘on va Boysun aholisi esa ko‘proq smola yig‘ib sotishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.В.70.03 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ  
КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ШАРИПОВ АБДУНАЗАР ЭШКОБИЛ ОГЛИ**

**ПРИРОДНЫЕ РЕСУРСЫ И БИОЛОГИЯ ФЕРУЛЫ ТАДЖИКСКОЙ  
(*FERULA TADSHIKORUM* PIMENOV), РАСПРОСТРАНЕННОЙ  
В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/B507.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации помещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Тургинов Орзимат Турдиматович</b> доктор биологических наук, (DSc)
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Дусчанова Гулжан Мадримбаевна</b> доктор биологических наук, профессор <b>Мукумов Илхом Уктамович</b> кандидат биологических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Бухарский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится « 04 » апрель 2025 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.B.70.03 при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, Карши, улица Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0 375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz.). Каршинский государственный университет, факультет Физики-математики, 203-аудитория.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 259) (Адрес: 180103, город Карши, ул Кучабог, 17. Тел.: (0 375) 225-34-13).

Автореферат диссертации разослан « 15 » март 2025 года  
(реестр протокола № 13 от « 15 » март 2025 года).



*Ш.К. Курбонов*  
**Ш.К. Курбонов**  
председатель Научного совета  
по присуждению учёной степени,  
доктор биологических наук, профессор

*Ш.А. Саматова*  
**Ш.А. Саматова**  
ученый секретарь Научного совета по  
присуждению учёных степеней, кандидат  
биологических наук, доцент

*Л.Х. Ёзиев*  
**Л.Х. Ёзиев**  
председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
учёных степеней, доктор биологических  
наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время из-за нерационального использования лекарственных и экономически ценных растений, которые играют важную роль в удовлетворении потребностей человека в глобальном масштабе, наблюдается сокращение их природных запасов, что оказывает негативное влияние на восстановление естественных популяций растений. Особенно усиление антропогенного воздействия на лекарственные и высокоэффективные растения, их нерациональное использование негативно влияет на восстановление их естественных популяций, в результате чего сокращаются природные площади их произрастания. Исходя из этого, изучение природных запасов лекарственных и ценных растений, а также разработка мер по сохранению их популяций имеет важное значение.

